

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririy-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir
Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)
OTAJONOV S. (O'zbekiston)
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)
KARIMOV E. (O'zbekiston)
RASULOV R. (O'zbekiston)
ONARQULOVA K. (O'zbekiston)
YULDASHEV G. (O'zbekiston)
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)
DADAYEV S. (O'zbekiston)
ASQAROV I. (O'zbekiston)
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)
YULDASHOV A. (O'zbekiston)
XOLIQOV S. (O'zbekiston)
MO'MINOV S. (O'zbekiston)
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)

ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)
SHUKUROV R. (O'zbekiston)
YULDASHEVA D. (O'zbekiston)
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)
KASIMOV A. (O'zbekiston)
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)
G'OFUROV A. (O'zbekiston)
ADHAMOV M. (O'zbekiston)
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)
USMONOV B. (O'zbekiston)
ASHIROV A. (O'zbekiston)
MAMATOV M. (O'zbekiston)
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)
XAKIMOV N. (O'zbekiston)
BARATOV M. (O'zbekiston)

Muharrir: Sheraliyeva J.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60
Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:
Qog'oz bichimi: - 60x84 1/8
Bosma tabog'i:
Ofset bosma: Ofset qog'ozi.
Adadi: 10 nusxa
Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Farg'ona,
2022.

T.Egamberdiyeva	
Qiz bolalarda ijtimoiy faol shaxs sifatlarini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari	7
R.Safarova, M.Abdullayev	
Etnopedagogik qadriyatlar vositasida o'quvchilarda milliy g'urur tuyg'usini shakllantirish usullari va metodlari	11
J.Obidov	
Talabalarda texnologik determinizm konsepsiyasiga oid bilimlarini takomillashtirishning pedagogik mazmuni va amaliyotdagi holati	16
F.Madraximova	
Ta'limni axborotlashtirish sharoitida talabalarda mediasavodxonlikni rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida	21
X.Tojiboyeva	
O'smir yoshdagi o'quvchilarda gender o'z-o'zini anglash ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari	26
	IQTISODIYOT
M.Yuldasheva, A.Kolkanatov	
Oilaviy dam olish madaniyatini rivojlantirishda ijtimoiy va madaniy marketing	29
S.Ismoilova	
Budjet mablag'laridan foydalanishning samaradorligini ifodalaydigan ko'rsatkichlar tizimi	34
	FALSAFA, SIYOSAT
A.Yuldashov	
Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar himoyasini ta'minlashda mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlarning tutgan o'рни	39
D.Raxmatova	
Qatag'onlik siyosatining aholi ijtimoiy-ma'naviy hayotiga salbiy ta'siri (xx asrning 40-50 yillar misolida)	47
	TARIX
B.Matboboyev, A.Aloxunov	
Farg'ona vodiysida ilk urbanizatsiya jarayonlari	53
S.To'raxo'jayev	
Sovet hokimiyati tomonidan Turkiston ASSR da amalga oshirilgan bolalar evakuatsiyasi va reevakuatsiyasi tarixidan	58
R.Ahmedov	
Turkiston ASSRda savodsizlikni tugatish bo'yicha dastlabki chora-tadbirlarning yo'lga qo'yilishi (1918-1922-yillar)	63
Sh.Jumayev	
Farg'ona viloyatidagi katolik jamoalarining faoliyati: tarix va bugungi kun	70
I.Xo'jaxonov	
Amir Temur davri shaharsozligida turli o'zliklarning namoyon bo'lishi	74
A.Sarsenbayev, N.Turambetov	
Yevropada islom huquqi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar tahlili (XVIII-XXI)	78
R.Akbarov	
Ikkinchi jahon urushi yillarida o'zbek milliy matbuoti sahifalarida mahalliy resurslardan foydalanish masalasi	85
R.Murodaliyev	
So'ngak mozor-qo'rg'onining davrlashtirilishi haqida	92
N.Turambetov	
Yozef shaxt - islom huquqshunosligi bo'yicha taniqli yevropalik sharqshunos olim	98
X.Ergasheva	
1917-1924 yillarda Farg'ona vodiysida neft sanoati tarixi	103
Sh.Xonimov	
Yoshlar ijtimoiy faolligi va dunyoqarashi shakllanishiga globallashtirish jarayonlarining ta'siri	109

TARIX

UDK: 336.14(575.1)+32.01:303

DOI: [10.56292/SJFSU/vol28_iss3/a20](https://doi.org/10.56292/SJFSU/vol28_iss3/a20)

**YOSHLAR IJTIMOY FAOLIGI VA DUNYOQARASHI SHAKLLANISHIGA GLOBALLASHUV
JARAYONLARINING TA'SIRI**

**ВЛИЯНИЕ ПРОЦЕССОВ ГЛОБАЛИЗАЦИИ НА СОЦИАЛЬНУЮ АКТИВНОСТЬ МОЛОДЕЖИ
И ФОРМИРОВАНИЕ МИРОВОЗЗРЕНИЯ**

**THE INFLUENCE OF GLOBALIZATION PROCESSES ON YOUTH SOCIAL ACTIVITY AND
WORLD ATTITUDE FORMATION**

Sharofiddin Xonimov¹

¹Sharofiddin Xonimov

– O'zbekiston Milliy universiteti mustaqil
tadqiqotchisi.

Annotatsiya

Mazkur maqolada yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, har bir shaxsda qonunlarga va odob-axloq qoidalariga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik hissini uyg'otish ishiga kompleks yondashuv masalalari yoritilgan. Yoshlar har qanday jamiyatning ajralmas qismidir va globallashuv davrida avvalambor uning muammolari birinchilardan bo'lib yuzaga chiqishi, insoniyatning global muammolari, globallashuvning real jarayonlari va shakllanishini aniqlashda, birinchi navbatda, yoshlar parametri turishi, aynan yoshlar iqtisodiy va ijtimoiy tomondan aziyat chekadilar va mojarolar markaziga borib qolishlari mumkin. Avvalo, yoshlar yangilanib borayotgan dunyoviy etikani puxta egallab, uning asosida yashashni o'rganishlari kerakligi bayon etilgan.

Аннотация

В данной статье рассматриваются вопросы формирования правового иммунитета от факторов, негативно влияющих на правовое воспитание молодежи, соблюдение законов и правил этикета, верность национальным ценностям, комплексный подход к работе по воспитанию чувства нетерпимости к обидам в каждом человеке. Молодежь - неотъемлемая часть любого общества, и в эпоху глобализации первыми возникают ее проблемы, глобальные проблемы человечества, реальные процессы и формы глобализации, параметр молодости стоит на первом месте, это молодежь, которая страдает от экономической и социальной стороны и находится в центре конфликтов, может уйти и остаться. Прежде всего было заявлено, что молодежь должна научиться жить на основе современной светской этики.

Abstract

In this article, the issues of forming legal immunity against factors that have a negative impact on the legal education of young people, respect for laws and rules of etiquette, loyalty to national values, and a comprehensive approach to the work of instilling a sense of intolerance towards offenses in each person are highlighted. Young people are an integral part of any society, and in the era of globalization, its problems are the first to emerge, the global problems of humanity, the real processes and forms of globalization, the youth parameter is the first place, it is the youth who suffer from the economic and social side and are at the center of conflicts. they can go and stay. First of all, it was stated that young people should learn to live on the basis of modern secular ethics.

Kalit so'zlar: yoshlar, globallashuv, dunyoviy etika, yoshlar parametri.

Ключевые слова: молодежь, глобализация, светская этика, параметр молодости.

Key words: youth, globalization, secular ethics, youth parameter.

KIRISH

Bugungi kunda ertangi taraqqiyotini o'ylagan har bir davlat uchun jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtayi nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish ustuvor vazifa sanaladi.

Yurtimizda mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq yuksak bilimli, intellektual salohiyatli yigit-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyatda munosib o'rin egallashlariga ko'maklashish davlatimiz siyosatining ustuvor vazifalaridan biri bo'lib kelmoqda. Bugungi kunda ushbu yo'nalishda aniq chora-tadbirlar ro'yobga chiqarilmoqda. Natijada, yoshlarimiz xalqaro darajadagi sport, fan va boshqa bir qator yo'nalishlardagi tanlovlarda yuqori natijalarni egallab, O'zbekistonning rivojlangan davlatlar safidan o'rin olishida munosib hissa qo'shmoqda.

Shu bilan birga, yoshlarning doimo faol ijtimoiy kuchga aylanib borishi bugungi kunda ularning turli mafkuraviy ta'sir va tazyiqlarning bosh obyektiga aylanishiga olib kelmoqda. Bunda

ularning jamiyatning hali yetarli tajribaga ega bo'lmagan, tashqi ta'sirlarga tez beriluvchan va ayni paytda, eng harakatchan qatlami ekani inobatga olinmoqda.

Hozirgi kunda farzandlarimiz dunyoning eng o'tkir, faol, uddaburon, Vatanparvar yoshlariga aylanishi, ularni fidoyilik, vatanparvarlik, tadbirkorlik, millatparvarlik, sadoqatga o'rgatish ko'p jihatdan ota-onalarga bog'liq.

Mamlakatimizda yoshlarni ilm-ma'rifatli, turli sohalarda yetuk mutaxassis, jismonan barkamol inson bo'lib yetishishga keng sharoitlar yaratib berilgan. Mazkur imkoniyatlardan to'la-to'kis foydalanish, jamiyat va davlat uchun fidokor shaxs bo'lish har bir yoshning burchidir. Buning uchun esa, ular eng avvalo, dunyoviy va kasb fanlarini chuqur o'zlashtirish, shuningdek, o'zbek xalqining mehnatsevarlik, oilani muqaddas bilish, insonlarga mehribonlik, do'stlarga sadoqat, vatanparvarlik kabi tarixan e'zozlab kelinayotgan qadriyatlarini o'zida shakllantirishi talab etiladi.

Bugungi kunda globallashuv sharoitida dunyo mamlakatlari barcha sohalarda, barqaror taraqqiyot yo'lida o'zlarining o'rinlariga ega bo'lib bormoqda. Albatta, bunda har bir davlatning tabiiy va iqtisodiy omillari bilan birga, inson omili, jumladan, yosh avlodlarni tarbiyalash, shart-sharoitlar yaratish, ularning intellektual salohiyatidan samarali foydalanish muhim. Davlat va jamiyat boshqaruvida ham, biznesni taraqqiy ettirishda ham, umuman, barcha soha rivojida salohiyatli yoshning alohida o'rni bor. Sababi, ular jamiyat uchun "yangi qon" vazifasini o'taydi. Yangidan-yangi tashabbus-g'oyalarni ilgari surish, zamonaviy ish yuritish uslublarini joriy qilishda ana shu qatlam yigit-qizlarning nuqtayi nazari va sa'y-harakatlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Globallashuv hodisasi yaqin paytlargacha ko'pchilikka yaxshi ma'lum bo'lmagan tushuncha bo'lib hisoblangan bo'lsa, hozirgi kunda u jarayon sifatida siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va tarixiy-falsafiy mushohadalarda eng ko'p ishlatilayotgan kategorial atamaga aylanib bormoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

E'tiborli jihati shundaki, 1987-yilgacha AQSH Kongressi kutubxonasi kartotekasida "globallashuv" tushunchasi qo'llanilgan birorta adabiyot bo'lmagan. Biroq, 1990-yillardan boshlab globallashuv muammosiga bag'ishlangan asarlar va maqolalar shiddat bilan ko'paya boshladi. Hozirgi kunda globallashuv jarayoniga nisbatan turli xil ijtimoiy-falsafiy kontseptsiyalar shakllanmoqda. Ularda mazkur jarayonni anglashga, uning xalqlar va davlatlar taqdiriga ta'sirini aniqlashga, oqibatlari va kelajagini tasavvur qilishga urinishlar kuzatilmoqda[1].

Bugungi globallashuv jarayonlari davlat va siyosat arboblari, faylasuflar va jamiyatshunos olimlar, jurnalistlar va boshqalar tomonidan turlicha sharhlanmoqda. Qanday atalmasin, bugun biz tez sur'atlar bilan o'zgarib borayotgan, insoniyat hozirga qadar boshidan kechirgan davrlardan tubdan farq qiladigan o'ta shiddatli va murakkab bir zamonda yashayotganligimiz muhtaram Prezidentimiz asarlarida ham ta'kidlangan.

O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida "globallashuv fenomeni" atamasining bugungi kunda ilmiy-falsafiy, hayotiy tushuncha sifatida juda keng ma'noni anglatishi, umumiy nuqtayi nazardan qaraganda, bu jarayon mutlaqo yangicha ma'no mazmundagi xo'jalik, ijtimoiy-siyosiy, tabiiy – biologik global muhitning shakllanishini va shu bilan birga, mavjud milliy va mintaqaviy muammolarning jahon miqyosidagi muammolarga aylanib borishini ifoda etayotganligi ta'kidlangan.[2]

Globallashuv sharoitida dunyo mamlakatlari barcha sohalarda, barqaror taraqqiyot yo'lida o'zlarining o'rinlariga ega bo'lib bormoqda. Albatta, bunda har bir davlatning tabiiy va iqtisodiy omillari bilan birga, inson omili, jumladan, yosh avlodlarni tarbiyalash, shart-sharoitlar yaratish, ularning intellektual salohiyatidan samarali.

Yoshlar har qanday jamiyatning ajralmas qismidir va globallashuv davrida avvalambor uning muammolari birinchilardan bo'lib yuzaga chiqadi. Insoniyatning global muammolari, globallashuvning real jarayonlari va shakllarini aniqlashda, birinchi navbatda, yoshlar parametri turadi. Aynan yoshlar iqtisodiy va ijtimoiy tomondan aziyat chekadilar va mojarolar markaziga borib qolishlari mumkin. Avvalo, yoshlar yangilanib borayotgan dunyoviy etikani puxta egallab, uning asosida yashashni o'rganishlari kerak. Mustaqil hayotga kirib kelayotgan yoshlarimiz tinchlik madaniyatini anglashlari va tushunib yetishlari, globalizatsiya jarayoniga ijtimoiy masofadan qarashlari muhimdir.

Bizga ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 9-

TARIX

yanvardagi “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-5618-son Farmoni keng jamoatchilikning huquqiy ongi, huquqiy madaniyati, huquqiy savodxonlik darajasi yuksalishida amaliy ahamiyat kasb etadi.

Ushbu Farmonda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda fuqarolarning huquqiy savodxonligi darajasini oshirishga to‘sqinlik qiluvchi quyidagi muammo va kamchiliklar saqlanib qolinayotganligi sanab o‘tilgan. Jumladan:

- huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, huquqiy ta‘lim va tarbiya borasidagi ishlar tizimli va uzviy olib borilmayapti. Uzoq yillar davomida bu masala huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ayrim davlat organlarining ishi sifatida qarab kelinib, bunda oila, mahalla va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining ishtiroki yetarlicha ta‘minlanmagan;

- yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, har bir shaxsda qonunlarga va odob-axloq qoidalariga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik hissini uyg‘otish ishiga kompleks tarzda yondashilmadi;

- aholining huquqiy bilimlarini oshirishga doir vazifalarning umumiy tusda belgilanganligi hamda ularni amalga oshirishning aniq ta‘sirchan mexanizmi mavjud emasligi jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasidagi ishlarning samarasiz olib borilayotganligini ko‘rsatadi;

- huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o‘rtasidagi muvozanatni saqlash g‘oyalarini aholi ongiga singdirish ishlarining yetarli olib borilmasligi ham qonun ustuvorligini ta‘minlashga o‘zining jiddiy salbiy ta‘sirini ko‘rsatmoqda[3].

Davlatimiz rahbari o‘zlarining ko‘plab ma‘ruza va chiqishlarida davlat va jamiyatni taraqqiy ettirish umumjamiyatning ishiga aylanishi kerakligini, buning uchun har bir fuqaro o‘zining bu borada qat‘iy fuqarolik pozitsiyasini namoyon etishi, fuqaroning shaxsiy manfaati hech qachon jamiyat manfaatidan ustun bo‘lmasligi lozimligini ta‘kidlab o‘tadilar.

Bizningcha, globallashtirish jarayonlarida axborot va kompyuter texnologiyalardan to‘g‘ri va samarali foydalanish zarur. XXI asr insoniyat tamadduniga axborot texnologiyalari va intellektual salohiyat asri sifatida kirdi. Bu asrda inson aqlli va tafakkuri yordamida aql bovar qilmas darajadagi texnika va texnologiyalar yaratildi, aynan mana shu texnika va texnologiyalar yordamida hayotning barcha sohalarida yuksak natijalarga erishilmoqda. Mazkur kashfiyotlarning biri sifatida bugungi kunda eng ommalashgan internet tarmog‘i esa yagona axborot tarqatuvchi manba sifatida bugungi kunda butun dunyo tomonidan e‘tirof etilmoqda. Guruch kurmaksiz bo‘lmagani kabi, aynan mana shu manbadan ham o‘z g‘arazli maqsadi yo‘lida foydalanuvchilar chiqib turibdi.

MUHOKAMA

Statistik ma‘lumotlarga qaraganda, hozirgi vaqtda mobil internetdan foydalanish jadal taraqqiy etib bormoqda. Xususan, so‘nggi besh yil ichida harakatlanuvchi keng polosali aloqa uchun shartnomalar soni yiliga kamida 20 foizdan o‘tib borgan. 2017-yil oxiriga borib jahon bo‘yicha mobil internet foydalanuvchilari soni 4,3 milliardga yetgan.

Tadqiqotlar jahonda 15-24 yosh oralig‘idagi yoshlarning internetdan foydalanish ko‘rsatkichlari o‘tib borayotganini ko‘rsatdi. Nisbatan kam rivojlangan mamlakatlarda internet foydalanuvchilarning 35 foizgacha bo‘lgan qismini 15-24 yosh oralig‘idagilar tashkil etadi.

Rivojlangan davlatlarda bu yosh toifasidagi internet foydalanuvchilarining ulushi 13 foiz atrofida, jahon bo‘yicha esa mazkur ko‘rsatkich 23 foizdan oshmaydi. Birgina Xitoy va Hindistonning o‘zida 320 million nafargacha yoshlar internetdan foydalanadi¹.

Ma‘naviy tahdidlar va axborot xurujlaridan himoyalaniş murakkab jarayon bo‘lib, fuqarolardan o‘z mustaqil fikriga, zamonlar sinovidan o‘tgan hayotiy milliy qadriyatlarga, sog‘lom negizda shakllangan dunyoqarash va mustahkam irodaga ega bo‘lish talab etiladi.

San‘at ahlining hamda yoshlarimizning ayrim qismlarini “Ommaviy madaniyat”ga taqlidi jamiyatda jaholatning ildizini otishiga olib kelishi mumkin. Bu xususida Prezident Sh. Mirziyov shunday degan edi: “Biz bir narsani hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz zarur. Agar “ommaviy madaniyat” tahdidi faqat chetdan – G‘arbdan kirib keladi, desak, qattiq adashamiz. Bu balo, afsuski o‘zimizdan, o‘z oramizdan ham chiqishi mumkin. Men bu gaplarni osmondan olib

1 Ҳикматов А. Йил охирида жаҳонда мобил интернет фойдаланувчилари сони 4,3 млрдга етади.

<https://www.terabayt.uz/post/jil-oxirida-jahonda-mobil-internet-foj-dalanuvchilari-soni-43-mlrdga-etadi>

aytayotga-nim yo'q. Yurtimizda nashr etilayotgan ayrim gazeta-jurnallar, kitoblarni, suratga olinayotgan ba'zi klip va kinolarni, efirga berilayotgan qo'shiq va raqslarin kuzatib, sog'lom fikrlaydigan har qanday odam shunday xulosaga kelishi tabiiy. Eng yomoni, badiiy ijod sohasida jaholat ko'rinishlari kuchayib bormoqda"[5].

Hozirgi dunyo taraqqiyotining qonuniyatlari va globallashuv jarayonlarining tahlili dunyo shaxsiy va ijtimoiy hayotning barcha sohalarida tub o'zgarishlar bo'lishidan darak beruvchi «global axborot jamiyati» ostonasida turganligini ko'rsatmoqda.

XULOSA

Bugun inson hayotini axborot tizimlarisiz tasavvur qilish qiyin. Axborot asrida hatto harbiy harakatlarning usul va uslublariga ham muayyan o'zgartirishlar kirtildi. Shu bilan birga, informatsion xurujlar avj ola boshladi.

Globallashuv asrida bir davlat o'z milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda, axborotga ega bo'lish, undan foydalanish va uni himoyalashga intiladi. Shu bois muayyan davlat boshqa bir davlatga oid axborotni qo'lga kiritisa, muayyan ustunlikka ega bo'ladi.

Internetning cheksiz imkoniyatlaridan to'laqonli foydalanib, davlatimizning xalqaro hamjamiyatdagi o'rnini yanada mustahkamlash va jahonga tanilishi uchun harakat qilishimiz zarur. Demak, biz internetdan umumilliy manfaatga xizmat qiladigan va uning taraqqiyotiga yordam beradigan axborotlarni tanlab, tahlil qilib foydalansak, salbiy va noxolis axborotlar ta'siriga tushib qolishning oldini olgan bo'lamiz.

Adabiyotlar:

1. Чумаков А.Н. Глобализация. Контуры целостного мира. М.: Проспект. 2009. – С. 71.
2. Ислон Каримов. Юксак маънавият-енгилмас куч – Т.: Маънавият. 2008., 111 б.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Жамиятда ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни юксалтириш тизимини тубдан такомиллаштириш тўғрисида”ги ПФ-5618-сонли қарори 09.01.2019.
4. Ҳикматов А. Йил охирида жаҳонда мобил интернет фойдаланувчилари сони 4,3 млрдга етади. <https://www.terabayt.uz/post/jil-oxirida-jahonda-mobil-internet-fojdanuvchilari-soni-43-mlrdga-etadi>
5. Мирзиёв Ш. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламни юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир // Халқимиз розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. – Т.: Ўзбекистон. 2018. – 195 б.